



## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'TILADIGAN METODLAR VA ULARNING DARS DAVOMIDA QO'LLANILISHI**

**To'raqulov Akbar Rustam o'g'li**

DTPI Boshlang'ich ta'lism kafedrasi o'qituvchisi

**Murodova Mahbuba**

Denov tadbirkorlik va pedagogika iinstitut Pedagogika fakulteti boshlang'ich  
ta'lism yyo'nalish 2-bosqich talabasi

Tel:975099099

murodovamahbuba220@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada dars davomida qo'llanilishi kerak bo'lgan metodlar va ularning turlari, keltirilgan metodlarning o'qituvchi uchun nechog'lik kerakliligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** metod, ta'lim metodlari, tarbiya metodlari, interfaol metodlar, pedagogik mahorat.

**Abstract:** this article talks about the methods and their types that should be used during the lesson, and how useful the given methods are for the teacher.

**Key words:** method, educational methods, educational methods, interactive methods, pedagogical skills.

**Аннотация:** в данной статье рассказывается о методах и их видах, которые следует использовать на уроке, и о том, насколько данные методы полезны для учителя.

**Ключевые слова:** метод, методы обучения, методы обучения, интерактивные методы, педагогическое мастерство.

**Kirish.** Bizga ma'lumki har bir dars davomida o'quvchini qiziqtirgan holda, yangi mavzuni tushuntrish jarayonida va olingan bilimlarni yodda saqlash uchun o'qituvchi tomonidan turli xil metodlar qo'llaniladi. Avvalo biz metod tushunchasiga ta'rif bersak. Metod – (grekcha “metodos” so'zidan olingan bo'lib, yo'l, axloq usuli) degan ma'nolarni anglatadi. Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli demakdir. O'qituvchi dars davomida turli xil metoddan foydalanishi bu uning pedagogik mahorati borligidan darak beradi.

O'qituvchi pedagog dars jarayonida o'quvchilarga ta'lism metodlari, tarbiya metodlari va interfaol metodlarni qo'llasa maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Asosiy qism.** Ta'lism metodi – o'qituvchining o'quvchilarga muntazam ravishda qo'llaydigan, o'quvchilarda o'z qiziqishlarini va aqliy qobiliyatlarini



rivojlantiradigan, bilim va ko'nikmalarni egallashga yordam beradigan va ularni amalda qo'llay olishga imkon beradigan ish usuli hisoblanadi. Ta'lif metodlariga bir qancha olimlar o'zlarining fikrlarini bayon etganlar.

Ta'lif metodi – zamonaviy darajada o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishishiga yo'naltirilgan pedagog va o'quvchilarning o'zaro bog'liq faoliyat usullaridir.

(V.I.Zagvyazinskiy)

Ta'lif metodi bu belgilangan maqsadga erishishni ta'minlovchi algoritmlashtirilgan, muayyan mazmunga ega harakatlar tizimidir

(P.I.Podlasiy)

Asosan ta'lif metodlari aniq bir maqsadni ifodalashga xizmat qiladi. bunda o'quvchilarga kerakli bilim berish yo'llari, o'quvchida aqliy qobiliyat va qiziqishlari xususiyatlarini aks ettirish nazarda tutiladi. Ta'lif metodlari quyidagi guruhlarga bo'linadi: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, kitob bilan ishlash, video-metod. Og'zaki metodga hikoya, suhbat, tushuntirish, ma'ruza, munozara kabi metolar kiradi. Boshlang'ich sinflarda bu metodlar o'qituvchi pedagog tomonidan dars davomida qo'llaniladi. Dars tushuntirish jarayonida suhbat, tushuntirish, ma'ruza metodidan foydalanilsa, yangi mavzu tushuntirilib bo'lganidan so'ng esa amaliy metod turlaridan foydalanish maqsadga muofiqdir. Amaliy metodlarga mashq, amaliy laboratoriya, didaktik o'yin kabi metodlar kiradi. Uyga vazifa berish jarayonida ham metodlardan foydalansa bo'ladi. Asosan bu vaziyatda kitob bilan ishlash ta'lif metodlarini ko'rishimiz mumkin. Bu metodga esa o'qish o'rganish, reja tuzish va kanspekt qilish kabi metodlar kiradi. Boshlang'ich sinflarda dars o'tiladigan xonaga o'qituvchi tashabbusi bilan sinf kutubxonasi tashkil etilishi kerak. Unda o'quvchilarning uy kutubxonalaridan o'zlarining yoshiga mos bo'lgan kitoblarni olib kelib qo'yadilar va har haftada bittadan kitob o'qishni, hafta yakunida esa shu o'qigan kitobi bo'yicha o'qituvchi bilan fikrlashishni odat qilishlari kerak. Shu asnoda bizga kitob bilan ishlash metodi qo'l keladi. O'quvchilarni yoshligidan kitobga mehr qo'yishiga, unga bo'lgan qiziqishini oshirishga katta ahamiyat berishimiz lozim. Keying metod bu video-metod hisoblanadi. Bu metodlar ham asosan dars davomida o'qituvchi tomonidan qo'llaniladi. Ko'rish, o'rganish va nazorat qilish kabi metodlar video-metod turlariga kiradi.



Boshlang'ich sinflarda dars jarayonida qo'llaniladigan yana bir metodlar tarbiya metodlaridir. Tarbiya metodi – tarbiya maqsadiga erishishning yo'li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda bu metod tarbiyalanuvchi ya'ni o'quvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etuvchi usul. O'quvchilarga dars mashg'ulotlarini o'qitish ya'ni ta'lif berish bilan birligida, o'quvchilarga tarbiya jarayonini ham birdek olib borish lozim. Ta'lif – tarbiya so'zi bir-biriga uzviy bog'liq. Shuning uchun ham o'quvchilarga tarbiya berish jarayoni uning o'qituvchisi tomonidan amalga oshiriladi.

Tarbiya metodlari quyidagilar:

1. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar;
2. Odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodlari;
3. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari;

Birinchi guruh metodlarining vazifasi o'quvchilarda ijtimoiylikni, ijtimoiy ongni, axloqiylikni, mehnat qilish munosabatlari qonun va qoida me'yorlari haqida tushunchalarini hosil qilish uchun qo'llaniladi.

Ikkinci guruh metodlarining vazifasi esa ma'naviy mazmunga oid odatlar hosil qilinadi.

Uchinchi guruh metodlarining asosiy vazifasi shundan iboratki, bu ta'lif jarayonida o'quvchilarning o'zini tutishlari, ijtimoiy odab-axloqining ijobjiy sifatlarini rag'batlantirish, salbiy xislatlarini tuzatish yoki ularni oldini olishga qaratiladi.

Dars davomida o'qituvchi interfaol metodlardan ham foydalanadi. O'qituvchi pedagog interfaol ta'lif orqali o'quvchi qobiliyatini rivojlantiradi, o'zini ustida ishlash ko'nikmalarini hosil qiladi, mustaqil fikrlashga undaydi, tengdoshlari bilan ishlash, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, muammoning yechimini topishga intilish va shu vaziyatdan qanday chiqib ketish kabi ko'nikmalarni o'rganadilar. Interfaol ta'lif asosini interfaol metodlar tashkil etadi.

"Ta'lif jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchilar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, ta'lif olivchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularni shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi<sup>1</sup>. Interfaol metodlarga "Aqliy hujum", "Bahs munozara", "BBB", "Bumerang", "Venn diagrammasi", "Videotopishmoq",

<sup>1</sup>D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi(metodik qo'llanma)". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti,2013



"Gugurt donalari", "Yagona davra", "Yelpig'ich", "Zakovatli zukko", "Zinamazingina" va boshqa metodlar orqali darsda o'zlashirilgan bilimlar mustahkamlanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda metodlardan foydalanish o'quvchilarda bo'lgan savodxonlikni oshirishga yordam beradi. Ta'lif metodlari o'quvchilar bilimini oshirsa, tarbiyaviy metodlar o'quvchida ijtimoiy onglilikni, axloqiy qonun qoidalar hamda xuq-atvoriga va tuyg'ulariga ta'sir etuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Interfaol metodlar maqsadi esa olingan bilimlarni yanda mustahkamlash va o'quvchilarni ziyraklikka, topqirlikka va tanqidiy fikrlashga jalb etish hisoblanadi. O'qituvchi dars davomida drsga oid metodlarni qay darajada qo'llay olish bu o'qituvchining pedagogik mahoratidan darak beradi.

## FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR:

- 1.D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova "Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi(metodik qo'llanma)". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti,2013;
- 2.Akbar, T. (2022). Opportunities to Form Spiritual Competence in Students of the 10-11th Class. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(8), 160-167.
- 3.Rustamovich, T. R. A. (2021). Islom Ta'limatlarda Shaxs Ma'naviyati Masalalari. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(5), 186-190.